



**O'RTA OSIYODA ISLOM DINIGA QARATILGAN  
ISLOHOTCHILIK HARAKATLARI VA O'ZGARISHLAR.  
REFORM MOVEMENTS AND CHANGES TOWARDS ISLAM IN  
CENTRAL ASIA**

**РЕФОРМАТОРСКИЕ ДВИЖЕНИЯ И ИЗМЕНЕНИЯ В  
ОТНОШЕНИИ ИСЛАМА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**

*Arslonbekov Nursulton Azizbek o'g'li*

*Qarshi Davlat Universiteti tayanch doktoranti (PhD)*

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada Sovet Ittifoqi hukmronligi davrida Islom diniga nisbatan Musulmon ruhoniylarning islohotchilik harakatlari haqidagi ma'lumotlar ko'rib chiqiladi. Xususan, Musulmonlarning diniy boshqaruvi organi bo'lmish, Muftiyliklar faoliyatini va davlat bilan munosabatini xolis yoritishga harakat qilinadi. Sovetlarning dinga bergan erkinligi ta'sirida yangicha islohotchilar va salafiy oqimlarning shakqlanishi tahlil qilingan. Maqolada ilmiy yondashuv asosida tarixiy haqiqatlarni rus, g'arb va milliy manbalar asosida tahlil qilingan.

*Kalit so'zlar :* SSSR da islam, muftiylik, jadid, salafiy, SADUM.

*Abstract:* This article examines the information about the reformist movements of Muslim clerics towards Islam during the Soviet Union. In particular, an attempt is made to objectively cover the activities of the Muftis, the religious governing body of Muslims, and their relationship with the state. The formation of new reformers and Salafi movements under the influence of the freedom of religion granted by the Soviets is analyzed. The article analyzes historical facts based on a scientific approach, based on Russian, Western, and national sources.

*Keywords:* Islam in the USSR, MUFTIATE, jadid, salafiy, SADUM.

*Аннотация:* В статье рассматриваются сведения о реформаторских движениях мусульманского духовенства в отношении ислама в советское время. В частности, предпринята попытка объективно осветить



деятельность муфтиев – религиозного органа управления мусульман – и их взаимоотношения с государством. Проанализировано формирование новых реформаторских и салафитских движений под влиянием предоставленной советской властью свободы вероисповедания. В статье анализируются исторические факты на основе научного подхода, опирающегося на российские, западные и отечественные источники.

**Ключевые слова:** ислам в СССР, муфтият, жадид, салафии, САДУМ.

### KIRISH

Markaziy Osiyo musulmonlari an'anaga ko'ra hanafiy mazhabiy ta'limotiga amal qilganlar (teologik va huquq maktabi). Sovet davridan oldingi an'anaviy ulamolar (ulamolar) Markaziy Osiyoda islomdan oldingi va islomiy amaliyotlarni uyg'unlashtirishgan edi. Islomning an'anaviy tushunchasi bu sunnatga rioya qilish edi. Shuningdek, mahalliy urf-odatlar va Qur'on va hadislarning turli tafsirlari bilan kuchli bog'liqlik va o'rta asr islom ulamolariga ergashuv kuchli edi.

Biroq, islohotchilar bu mahalliy an'anaviy amaliyotlarni tanqid qilishdi va qoralashdi.Ularni islomga zid bid'at deb hisoblashdi. Bu islohotchilarining ba'zilari salafiy musulmonlar edi.Ular islom fiqhining barcha mazhablarini inkor etib, faqat Qur'on yoki xadisning aslini qabul qilgan kishilar bo'lib, jamiyat qadimiy asoslar ustiga qurilishini da'vi qilishdi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Tarixdan ma'lumki 14 asrlik e'tiqodi Islom tamoyillari va qadriyatları ustiga qurilgan xalqimizning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va shaxsiy hayotiga din shu qadar singib ketganki, Markaziy Osiyo musulmonlarining Sovet Ittifoqiga qadar hayoti Shariatga uzviy bog'liq holda shakllangan bo'lib, Sovetlar o'zlarining butun mavjud tuzilmalari bilan ham buni tugata olmadi<sup>1</sup>.

Sovet davlati barpo etilgunga qadar diniy ishlar jamiyatning ijtimoiy va siyosiy tuzilmasida ulkan ahamiyat kasb etardi.Barcha masalalarda imomlar (odatda

<sup>1</sup> Sirelkhatim Mohamed, "Authority in Islam: The Institutionalization of Islam and the Elusive Transfer of Authority from Society to State," *Journal of Georgetown University-Qatar Middle Eastern Studies Student Association* 2015, no. 1 (March 18, 2015): 2.



namozlarda va jamoatlarda etakchi mavqega ega) va ulamolar, masalan, nikohga raislik qilishda fikr bildirish, hamda huquqiy maqomga ega bo‘lgan bo‘lsada, ammo imomlar huquqiy masalalarda vakolatga ega emas edi<sup>2</sup>. Shuning uchun ular odatda, shaxsiy masala, odatiy kunlik diniy amaliyat bo‘yicha xalqni boshqarib turganlar. Shuning uchun bu jarayonda sovet dunyoviy davlati diniy ishlar ustidan nazoratni amalga oshirish uchun O‘QMDB tashkilotini tashkil etishga majbur bo‘ldi. SSSRda islom dini chegaralari bilan belgilangan hamda o‘zi bilan kelisha oladigan islom makonini yaratdi<sup>3</sup>.

Jadidlar esa, 19-asrning oxirida mahalliy urf-odatlarni (to‘y, aza, sunnat to‘y kabi) tanqid qilgan yana bir islohotchi harakat bo‘lib, Jadidlar salafiylardan farqli ravishda hanafiylikni rad etmaganla mazhabga ergashganlar, lekin ta’lim orqali Markaziy Osiyo musulmonlari hayotini modernizatsiya qilishga harakat qildilar.

Abduvali qori, Rahmatulloh Alloma kabi islohotchilar esa, Arabistonagi Abd al-Vahhob (1703-1791) tarafdarlariga o‘xshash “salafiy islohoti” orqali Islomni “poklashga” va “Payg‘ambar davriga” qaytishga harakat qilganlar. Biroq, Sovet davrida O‘rta Osiyoda “vahhobiy” atamasi mahalliy dindorlarga nisbatan ham ishlatilgan ya’ni kimdir amallarni “ortiqcha” yoki “buzilgan” deb tanqid qilsa ham masalan, O‘rta Osiyoda keng tarqalgan “avliyolarga sig‘inish” kabi vahhobiy hisoblangan.

Ikkala yo‘nalish ham an’anaviy va islohotchilar ham islomni qayta tiklashga harakat qilishdi, lekin turli yo‘llar bilan. Vaholanki, qadimchilar fiqhlagi Hanafiy mazhabi orqali dinni qayta tiklashga harakat qilishdi. Islohotchilar asl matnlarni (Qur‘on va xadis) qayta talqin qilish orqali uni jonlantirishga harakat qildilar. Jadidchilar islom dinini yoyish uchun Qur‘on va hadislarni qayta talqin qilishga urindilar, bu orqali dinni zamona bilan moslashtirdilar. Biroq, “mahalliy

<sup>2</sup> Seyfettin Erşahin, “The Official Interpretation of Islam under the Soviet Regime: A Base for Understanding the Contemporary Central Asian Islam,” *Hamard Islamicus: Quarterly Journal of Studies and Research in Islam* 28, no. 4 (2005): 7–25.

<sup>3</sup> Michael Kemper, *Studying Islam in the Soviet Union*, vol. 321 (Amsterdam University Press, 2009), 7; Adeeb Khalid, *Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia* (Berkeley: University of California Press, 2007).



vahhobiylar” zamonaviylikka tubdan qarshi chiqdilar va buning o‘rniga Qur’on va hadislarga qat’iy rioya qilishga chaqirdilar. Boshqa tomondan, SADUM rahbarlari, masalan, Z.Boboxonov islom dinini aholiga yetkazish uchun Qur’on va hadislarni qayta sotsializmga moslashtirib talqin qildi.

Sovet davridagi islom uyg‘onishini tushunish uchun Markaziy Osiyoda uch xil islohot yo‘lini farqlash lozim bular: jadidlar (zamonaviy), “mahalliy Vahhobiylar” (zamonaviylik va sotsializmga tubdan qarshi) va SADUM (zamonaviy va sotsialistik).

SADUM, Sovet hukumati talabi bilan, ba’zi munozaralarga sabab bo‘luvchi fatvolar (olimning huquq va diniy ishlar bo‘yicha majburiy bo‘lmagan fikri), ishlab chiqdi, ayniqsa, shayx Ziyovuddinxon Boboxonov rahbarligi davomida (1957-1982), muhim diniy masalalarga yondashuvlar, masalan, Ramazon oyida ro‘za tutish ishchilar uchun farz emas va hijob (ro‘mol) ayollar uchun farz emas kabi. Biroq, SADUMning pozitsiyasi vaqt o‘tishi bilan o‘zgardi. Z. Babaxonov (1957-1982)ning uslubi va qarashlari oxirgi muftiy Muhammad Sodiqdan (1989-1993) farq qilgan.

Ushbu tadqiqot birinchi navbatda islomiy tashkilot sifatida SADUMga qaratilgan bo‘lib SADUMning 1943-yilda tashkil etilganidan to 1980-yillarga qadar davom etadi. Ushbu tadqiqot ko‘lami uch xil davrni qamrab oladi: 1)1943 yildan 1953 yilgacha bo‘lgan davr, ya’ni mo‘tadillashuv davri;2)1953-1964 yillar Xrushchev davridagi dinga qarshi kampaniyalar; va 3)1964 yildan 1980-yillarning boshigacha

SADUM shtab-kvartirasi O‘zbekiston SSR poytaxti Toshkent shahrida joylashgan bo‘lsada, uning qamrovi geografik jihatdan butun Sovet O‘rtta Osiyosini qamrab olgan. Ushbu tadqiqot markazi o‘z ichiga oladi

SADUMning Toshkentdagи bosh qarorgohi, xususan, uning Moskva bilan aloqalari CARC, shuningdek, musulmonlardan boshqa diniy muassasalar bilan xalqaro aloqalar Yaqin Sharq mamlakatlari, Misrdagi Al Azhar universiteti kabi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Sovet Ittifoqidagi fuqarolarning shaxsiy hayotidagi diniy unsurga ta’sir etish zamonaviylashuvning bir ko‘rinishi sifatida ijtimoiy hayotning, barcha jabhalarini davlatga bog‘lashni nazarda tutadi.Qisqacha qilib aytsak, Xudo irodasiga



bog‘langan boshqaruv usuli, sovetlar nazdida davlatga bog‘lanishi va shu orqali umumiyl baxtga va totuvlikka erishish mumkin.

Shu ma’noda, zamonaviy dunyoviy jamiyatlarda ham din nafaqat ijtimoiy qonun vazifasini balki, o‘z-o‘zini tarbiyalash funktsiyasini ham bajaradi. Dyurkgeymning so‘zlariga ko‘ra, dinlar zamonaviy davrda o‘zlarining ijtimoiy mavjudligini saqlab qolishda davom etdilar. Zamonaviy dunyoviy va diniy sohalar o‘rtasidagi bu bog‘liqlik dinning ma’nosи va unga nisbatan munosabatlarni tubdan o‘zgartirdi. Sovet Ittifoqining bir necha o‘n yilliklar davomidagi ateistik urinishlariga qaramay XXasr oxirida jamiyatning katta qismi o‘zini dindor deb bilardi.

liga yaqinlashdi va uning dinga nisbatan munosabati nisbatan yumshadi.

## XULOSA

1940-1950 - yillarda Sovet hukumati tomonidan olib borilgan diniy siyosat mahalliy xalqlarning erk uchun kurashiga qarshi qaratilgan vosita edi. Milliy davlatlarning to‘liq shakllanmasligi va qardosh xalqlarning birlashmasligi uchun ham diniy omilni va dindorlarni kuchsizlantirish yoki ularga minimal huquqlar berish orqali tiyib turish sovet hukumatining asosiy prinspiga aylandi.

Bu davrning yana bir o‘ziga xos jihatni unda ma’lum bir davrda erkinliklarni kafolatlash haqida qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilingan bo‘lsada amalda ularga umuman amal qilinmadi. Balki keyingi davrda bu huquqlar sekin asta oyoqosti qilinib ming yillik madaniy va milliy rivojlanishga ega xalqlarni o‘zligidan mahrum qilish va yagona sovet hukumati va xalqini shakllantirishga ahamiyat berildi.

Natijada, sovet siyosatining bu davri milliy o‘zlikni anglash jarayoniga jiddiy to‘sinq bo‘ldi va mustaqillikka intilish ruhiyatini so‘ndirishga qaratilgan siyosatning muhim qismi bo‘ldi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Seyfettin Erşahin, “The Official Interpretation of Islam under the Soviet Regime: A Base for Understanding the Contemporary Central Asian Islam,” *Hamdard Islamicus: Quarterly Journal of Studies and Research in Islam* 28, no. 4 (2005): 7–25.



2. Michael Kemper, *Studying Islam in the Soviet Union*, vol. 321 (Amsterdam University Press, 2009), 7; Adeeb Khalid, *Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia* (Berkeley: University of California Press, 2007).
3. Usmonxo‘jayev A. Dinimiz fidoyilari (tarix, xotiralar, saboqlar). – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 376 b.3. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1 jild. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – B.578.
4. Ахмадуллин В.А. Изучение особенностей исламской жизни Советом по делам религиозных культов при СНК СССР/CM СССР в первое послевоенное десятилетие // Исломоведение . – 2019. - №2 (40). – С. 57-76.
5. Балтанова Г.Р. Ислам в СССР : анализ зарубежных концепций. – Казан, Издательство Казанского университета, 1991. – 148 с.
6. Akiner Sh. Islamic People of the Soviet Union. London, 1983.
7. Bennigsen A. Islam and political power in the USSR, Religion and political power, ed. Gustavo Benavides, M.W.Daly, Albany, 1989, pp. 68-80.
8. Ro'i Y. Islam in the Soviet union. From the Second World War to Gorbachev. – London : Hurst, 2000.